XALQ DEPUTATLARI ANDIJON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 15-sentabr VII-8-87-1-16-K/25 Andijon tumani

Andijon tuman mahalliy byudjetining 2025-yil xarajatlarini maqbullashtirish orqali shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli (№03-03/1-4456) yig‘ilish bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 119-, 126-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Andijon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli (№03-03/1-4456) yig‘ilish bayonida mahalliy byudjetdagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hamda past samarali xarajatlarni maqbullashtirish hamda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan byudjet tashkilotlarining ish haqqi va ijtimoiy soliq to‘lovlarining yetishmagan qismiga hamda byudjet tashkilotlari xodimlarining homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lovlariga, shuningdek, qolgan qismini Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda hal etilishi dolzarb bo‘lgan tadbirlarga yo‘naltirilishi belgilanganligi;

Andijon tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining 2025-yil yanvar-iyul oylari ijrosi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 120-moddasi 4-qismiga binoan 3 420,0 ming so‘m mablag‘lar maqbullashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Andijon tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining maqbullashtirilgan mablag‘lari hisobidan 1 ilovaga muvofiq byudjet tashkilotlarining ish haqqi va ijtimoiy soliq to‘lovlarining yetishmagan qismini qoplash va 2 ilovaga muvofiq byudjet tashkilotlarining yuzaga kelgan qarzdorliklarini qoplash uchun uchun jami 3 267,0 (Uch milliard ikki yuz oltmish yetti million) so‘m miqdorida mablag‘lar ajratilsin.

3. Andijon tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi B.Abdulazizov va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi B.Xamraev ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Hududiy byudjet taqsimlovchilari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Andijon tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Muqimjonov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi

YULDASHEV
BOBIRBEK
BAXODIROVICH

Xalq deputatlari Andijon tumani
Kengashining
2025-yil 15-sentabrdagi
VII-8-87-1-16-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining maqbullashtirilgan mablag‘lari hisobidan byudjet tashkilotlarining ish haki va ijtimoiy soliq to‘lovlarining yetishmagan qismini qoplash uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori

№	Byudjet tashkiloti nomi	Byudjet tasnifi bo‘yicha bo‘lim, bob, paragrafi	Mablag‘ miqdori (mln so‘m)
1.	12 musiqa	7096600056	413
2.	16 musiqa	7096600056	304
3.	Axborot-kutubxona markazlari	7082102134	95
4.	Madaniyat markazi	7082310056	100
5.	Nafosat ansanbili	7089400056	17
6.	Obodonlashtirish boshqarmasi	7065200084	529
7	Danf etish joylarini saqlash	7065400084	397
8	Kambag‘allikni qisqartirish va banddlikni ko‘maklashish bo‘limi	7109120091	367
9	Hokim yordamchilari bo‘limi	7011209018	96
10	Xotin qizlar bo‘limi	7085400026	253
11	Madaniyat bo‘limi	7089200056	15
12	Yoshlar ishlari agentligi	7049996225	172
13	Veterinariya bo‘limlari	7042133250	333
	Jami		**3,091**

Xalq deputatlari Andijon tumani
Kengashining
2025-yil 15-sentabrdagi
VII-8-87-1-16-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining maqbullashtirilgan mablag‘lari hisobidan byudjet tashkilotlarining yuzagakelan qarzdorliklarini qoplash uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori

№	Byudjet tashkiloti nomi	Byudjet tasnifi bo‘yicha bo‘lim, bob, paragrafi	Mablag‘ miqdori (mln so‘m)
1.	Obodonlashtirish boshqarmasi	7065200084	**176**
	Jami		**176**